



## “UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA MADANIYATI DARSIDA VOKAL-XOR MASHQLARI USTIDA ISHLASH

**Muallif:** Ibragimova Shaxnoza Baxodirovna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-kurs magistranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378879>

### ANNOTATSIYA

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** xor, xorshunoslik, vokal, dinamik tus, dinamika, ovoz temбри.

Ko'p ovozli xor san'ati Respublikamiz musiqa hayotiga XX asrning 20-30 yillaridan boshlab kirib kela boshlagan. Xor san'ati asarlari dastlab musiqali dramalar va komediyalar hamda operalarga moslab qayta ishlangan holda qo'llanilgan. Masalan: Tolibjon Sodiqovning “Layli va Majnun”, S.Vasilenko va M.Ashrafiyning “Bo'ron”, “Dilorom” operalari shular jumlasidandir. Bular o'zbek ko'p ovozli xor ijrochiligining rivojiga katta hissa qo'shgan.

Ko'p ovozli xor san'atining jadal rivojlanishi XX asrning 50-60 yillarga to'g'ri keladi. 1952 yili O'zbekiston Davlat Filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan O'zbekiston Davlat Xor kapellasi S.Valenkov rahbarligida Respublikamizda xor ijrochiligining o'sishiga keng yo'l ochib berdi. Bu xor dasturini boyitishda M.Burxonov, S.Bobojev, I.Akbarovlarning birinchi o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq xalq qo'shiqlarini xor jamoasi uchun qayta ishlash natijasida ko'p ovozli milliy xor asarlari yaratildi. Har yili qo'shiq bayramlari, festivallar o'tkazilib, unda ko'p mingli xor jamoalari qatnashgan.

Musiqa janrlari ichida eng demokratik va ommaviy xususiyatga ega bo'lgan tur bu – xor san'atidir. U kishilarning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liqdir, ularni g'oyaviy estetik jixatdan tarbiyalaydi. Mashhur musiqa nazariyotchisi faylasuf, bastakor va musiqa madaniyati shakllanishi davrining asoschilaridan biri B. Asafev fikricha, xor san'ati musiqani tushuna bilish vositasidir.

Xor grekcha – xoros, “yig'ilish” ma'nosini bildiradi. Qadimiy grek teatri spektakllarida qatnashuvchi ashulachilar, o'yinchilar va deklaratsiya qiluvchi guruhlar “xorvetlar” deyilgan. Xorda yakka tembrlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan o'ziga xos vositalar orqali ijro qiladigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan jamoani atash mumkin. Ko'p ovozli kuylash malakalari bu xorshunoslik fanining turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xorshunoslik kursi xor san'atining nazariy asoslarini o'rgatuvchi fan bo'lib, xorda kuylash vokal texnikasi, xor ijrochiligining asosiy

bilim va malakalarini o'rgatadi. Bo'lajak bolalar uchun xorshunoslik asoslari kursi asosiy fanlardan bo'lib, musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablar, o'rta maxsus o'quv yurtlari, kasb-xunar kolleji, akademik litseylarda musiqa darslarini namunali olib borish va xor bilan ishlashda musiqa o'qituvchisining ixtisosligi bo'yicha tarbiyalashga ko'maklashadi.

Xor turlari:

1. Bolalar xori.
2. Ayollar xori (soprano, alt).
3. Erkaklar xori (tenor, bariton, bas).
4. Aralash xor.

Xor ijrosining: dinamik tus, tovush hosil qilish, ohangni yo'llash, tovush hosil qiluvchi unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish, dinamika, sur'at, ovoz tembri kabilar badiiy ifoda vositalari hisoblanadi.

Ko'p ovozli kuylash malakalarini shakllantirish metodlari quyidagilardan iborat:

- a) ovoz sozlash;
- b) ovoz hosil qilish;
- v) diksiya;
- g) xotira;
- d) nafas;
- e) ritmika;
- yo) jismoniy rivojlov.

Xorda olib boriladigan vokal ishlarining maqsadi, xonandalarga to'g'ri kuylash malakalarini o'stirishdir. Vokal ishlariga quyidagilar kiradi:

1. Xorning muhim elementlari ustida ishlash.
2. To'g'ri nafas olish.
3. Xor jamoasining a'zolarini bir xil vokal malakalariga kiradi. Xorda xar doim vokal-xor texnikasini rivojlantirish zarurdir.

Musiqa eng avvalo kishi tasavvurida obrazlar yaratishi orqali inson ruhiyatiga singib boradi. Yaxshi, yoqimli musiqa kishida yaxshi kayfiyat uyg'otadi va u kishi ruhiga ko'tarinkilik olib kiradi. Musiqa san'ati ba'zan shunday chuqur ma'no va mazmunga ega bo'ladiki, undan olingan taasurolarni ta'riflashga ba'zan inson tili ojizlik qiladi. Shunday ekan sirli ohanglar orqali jamiyatimizning asosi bo'lmish talaba yoshlarda milliy g'oya tushunchasini shakllantirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Bizga ma'lumki musiqa ijtimoiy hayotimizda keng o'rin egallab, asrlar osha inson ma'naviy hayotida ulkan ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu borada IX asr oxiri XI asr boshlarida yashab ijod etgan mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, o'z davrining atoqli shoirlaridan A.Jomiy va boshqalar musiqa san'atining qudratli ta'sirchan, tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tganlar.

Xulosa qilib aytganda, xor jamoasining ovoz sifatleri yuqori darajada bo'lishi kerak. Xor tarkibining asosiy qismini ovozlar tashkil etadi. Bu ovozlarning chambarchas kuylanishi ko'p ovozli kuylash malakalarini shakllantirish xisoblanadi. Bunday kuylash malakalari bolalarni eshitish qobiliyatini rivojlantirishga katta xissa qo'shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ro'ziev Sh. Xorshunoslik. – T.: "G'ofur G'ulom", 1987.

Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash. – T.: 1997  
Yusupova. N. “ Musiqa savodi , metodikasi va ritmika” Toshkent. 2010 yil. “  
Musiqa ” nashriyoti.

